



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-91-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Tuman “Mahallabay” ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari S.Begmatovning “Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tushayotgan murojaatlarni tahlili, hokim yordamchilari faoliyatining o‘rganish natijalari yuzasidan axboroti”ni ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-sonli Farmoni hamda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida joriy 2022 yilda tumanda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilgan holda, hokim yordamchilari faoliyati tahlil qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tuman “Mahallabay” ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbarining axborotini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman “Mahallabay” ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari S.Begmatovning Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tushayotgan

murojaatlarni tahlili, hokim yordamchilari faoliyatining natijalari yuzasidan axborot xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnbosari (J.Norqulov) hamda Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (S.Begmatov)larga:

- hokim yordamchilari belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha kreditlar va subsidiyalar ajratish uchun mas’ul idora va tashkilotlarga o‘z tavsiyasini berishda, har bir loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini chuqr o‘rganishni tashkil etish;

- ajratilayotgan resurslardan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish;

- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o‘rganish natijalari bo‘yicha respublika darajasida yechiladigan muammolarni hal etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- 2022 yilning 1-yarmi yakuni mobaynida markazga tuman fuqarolari tomonidan turli masalalar yuzasidan murojaatlar kelib tushgan. Murojaatlarning asosiy qismi sektorlarga to‘g‘ri kelganligi sababli mahalla fuqarolaridan tushgan murojaatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish uchun tegishli tashkilot, korxona va muassasalar, sektorlar rahbarlari bilan hamkorlik qilishga alohida ahamiyat berish;

- hokim yordamchisi faoliyatini joylarda tashkil etish hamda mazkur tizimni amaliyatga to‘liq tatbiq qilish yuzasidan kunlik nazoratni amalga oshirish vazifalari yuklansin.

3. Tuman mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (S.Begmatov) har oyda bir marotaba mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilgan holda, hokim yordamchilari faoliyatining natijadorligini o‘rganish, va o‘rganish natijalarini Xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borish so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi

(B.Elmurodova) mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilgan holda, hokim yordamchilari faoliyatining natijadorligini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rribosari J.Norqulov, ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo'ranov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X